

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)
ORIPOV A. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'oz.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

Sh.Hakimova O'zbekistonda elektroenergetika sanoatining huquqiy-meyoriy asoslari	113
J.Bo'tayev XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida samarqand viloyati qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar	118
I.Bohodirov, B.Jurayev Turkistonda XIX asr o'rtalarida armiya va harbiy ta'lim	123
A.Yuldashev Davlat, boshqaruv va rahbarlik masalasiga oid tarixiy qarashlar va zamonaviy yondashuvlar.....	129
B.Ataxanov Mustaqillikning ilk yillarida o'zbekistonning Belarus respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari	136
Sh.Husanova Qadimgi Farg'onaning samoviy tulporlari	140
N.Komilov Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o'rinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	146
G'.Raxmonov Farg'ona vodiysida suvdan foydalanishni yaxshilashda suvni tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etishning qulayliklari.....	151
O.Abdunosirova Iskandar Mirzo – madaniyat va san'at homiysi sifatida	155
Z.Abdullayev Turkistonda mol-mulk musodarasini va rekvizitsiya	158
S.Isroilova, G.Karimova Tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni loyihalashtirish.....	163

ADABIYOTSHUNOSLIK

Z.Tashtemirova, E.Gizdulin Lirik she'riyatning turga oid xususiyatlari	167
N.Sidikova Yurt tarixi va el taqdiri talqinlari	173
A.Eshdavlatova Rauf parfi ijodida erkin ruhning nostandart isyoni ifodasi	177
J. Xalliyev Ogahiy tarixiy va lirik asarlarida falsafiy-ma'rifiy istilohlar istifodasida mushtaraklik.....	182
E.Qurbonova Yassaviy "Pirim" deb ulug'lagan zot	186

TILSHUNOSLIK

K.Yusupova Imperativ konstruksiyalarda so'z tartibi.....	190
Yu.Shuxratova, A.Mamajonov O'xshatish munosabatini ifodalovchi morfologik vositalar.....	195
A.Yuldashev So'z yasalanishining kognitiv aspekti	198
X.Dusmatov O'zbek milliy so'z o'yinlarining reklama matnlarida ifodalanishi.....	204
N.Umarova, D.Madazizova Tilshunoslikda "argo" tushunchasi talqinlari.....	211
G.Majidova Til darslarida madaniyatni qamrab olish	215
L.Yo'ldosheva Muzeylarda turli xil mashg'ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish	220
N.Mamajonova Til darslarida lug'at boyligini oshirishni ilmiy tadqiq qilish	224
G.Isakova "Qanotli so'z" va "sitata" tushunchalarining o'zaro farqi.....	229
Z.Alimova Ayrim forsiy frazeologik birliklarning o'zbek tilida qo'llanilishi xususida	233
И.Попубай Zamonaviy lingvistik bilimlarda "axborot texnologiyalari diskursi" belgilash ta'rifi.....	238

O'XSHATISH MUNOSABATINI IFODALOVCHI MORFOLOGIK VOSITALAR
МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ ОТНОШЕНИЯ АНАЛОГИИ
MORPHOLOGICAL MEANS OF EXPRESSING THE RELATIONSHIP OF ANALOGY

Shuxratova Yulduzxon Shakarbek qizi¹
Mamajonov Alijon²

¹**Shuxratova Yulduzxon Shakarbek qizi**

–Farg'ona davlat universiteti, sirtqi bo'lim ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasini o'qituvchisi.

²**Mamajonov Alijon**

– Farg'ona davlat universiteti, tilshunoslik kafedrasini filologiya fanlari doktori, professor.

Annotatsiya

Maqolada o'xshatish munosabatini ifodalovchi lisoniy vositalar va ularning bir butun tizimni tashkil etishi, bu jarayonda til va nutqning turli birlik va ifoda vositalari ishtirok etib fikrning obrazlilikini, ta'sirchanligini, fikrni tez va oson yetkazilishida muhim o'rin tutishi haqida fikr yuritilgan. Tilda o'xshatish munosabatini ifodalovchi lisoniy vositalar doirasi bir muncha keng bo'lib, ushbu maqolada taqqoslash usuli orqali fikrlar bayon etilgan. O'xshatishning shakliy ko'rsatkichlari o'xshatish qurilmasida yangi so'z hosil qilish, qo'shimcha ma'noni berish, gap bo'lagi vazifasini bajarish uchun xizmat qiladi. Bu jarayonda til va nutqning turli birlik va ifoda vositalari ishtirok etib fikrning obrazlilikini, ta'sirchanligini, fikrni tez va oson yetkazilishida muhim o'rin tutadi.

Аннотация

В данной статье языковые средства представления и их формирование как целостная система играют важную роль в быстрой и легкой доставке идей, выразительности мысли, задействуя различные единицы и средства выражения языка и речи. думал о поведении. Спектр языковых средств выражения языковой аналогии несколько широк, и в данной статье идеи представлены методом сравнения. Формальные показатели имитации служат для создания нового слова в имитационном аппарате, для придания дополнительного значения, выполнения функции части речи. В этом процессе различные единицы и средства выражения языка и речи играют важную роль в образности, результативности, быстроте и легкости подачи мысли.

Abstract

In this article, linguistic means of representation and their formation as a whole system play an important role in the rapid and easy delivery of ideas, expressiveness of thought, involving different units and means of expression of language and speech. thought about the behavior. The range of linguistic means of expressing language analogy is somewhat broad, and this article presents ideas through the method of comparison. The formal indicators of simulation serve to create a new word in the simulation device, to give additional meaning, to perform the function of a part of speech. In this process, the various units and means of expression of language and speech play an important role in the imagery, effectiveness, quick and easy delivery of ideas.

Kalit so'zlar: O'xshatishlar, leksik, morfologik, sintaktik vositalar, subyekt, asos, etalon, shakl.

Ключевые слова: аналогии, лексические, морфологические, синтаксические средства, предмет, основа, эталон, форма.

Key words: analogies, lexical, morphological, syntactic means, subject, basis, standard, form.

KIRISH

“Ikki narsa yoki voqea-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, bo'rttiribroq ko'rsatib berishdan iborat badiiy tasvir vositasi, ko'chimning sodda turi” ga o'xshatish deb ataladi [1]. O'xshatish kamida ikkita subyekt ishtirokida sodir bo'ladi [2].

O'xshatish – tilshunoslik, adabiyotshunoslik, mantiq, falsafa, semiotika, shuningdek, fizika, matematika kabi ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar tarixi, madaniyatida tafakkurning yangilikni qidirish hamda kashf etish borasidagi eng muhim o'rin tutadigan hodisa bo'lib, aynan ana shu fanlar uchun zarur bo'lgan kategoriya sanaladi. O'xshatishning bu xususiyati tafakkurning mantiqiy amaliyotlaridan biri ekanligidan, ikki narsa, hodisa yoki tushunchaning biror jihatidan mos kelishiga asoslanganligidan kelib chiqadi.

Mantiq ilmidagi xulosa chiqarishning turli shakllari, xususan, uning maxsus shakli - analogiyaga ham alohida e'tibor qaratiladi. Bu fan mutaxassislarining ta'kidlashicha, "analogiya deb o'xshatish orqali bir belgining ikki buyumda mavjudligini aniqlab, bu buyumlarning boshqa o'xshash belgilarga ega ekanini ko'rsatishga aytiladi. Bunday badiiy tasvir vositasida ikki narsa – hodisa yoki voqelik ishtirok etadi. Bir narsa yoki hodisaning hamma belgilari biz uchun ma'lum. Ikkinchi narsa yoki hodisaning faqat ba'zi bir belgilarinigina bilamiz. Biz bunday vaqtda bu ikki narsa yoki hodisani bir-biriga o'xshatamiz" [3]. O'xshatish tafakkurning yangilikni qidirish va kashf etish borasidagi eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. O'xshatishning bu xususiyati uni barcha fanlar uchun zaruriy kategoriyaga aylantiradi. O'xshatishning "konkretlashtirish funksiyasi" esa falsafa, logika, tilshunoslik, badiiy adabiyotda atroflicha izohlangan holda voqealanadi" [4].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

O'xshatish adabiyotshunoslikning ham, tilshunoslikning ham o'rganish obyekti hisoblanadi, har ikkalasida badiiy tasvir vositasi sifatida o'rganiladi. "O'zbek tili stilistikasi" darsligida o'xshatish sintaktik hodisa sifatida baholanadi va quyidagicha izohlanadi: "Tropning bir ko'rinishi sifatida o'xshatish adabiyotshunoslikning o'rganish obyekti hisoblanadi. Uning ifodalaniş usullari, shu bilan birga, gapning tarkibiy komponenti ekanligi va nihoyat, umuman, shu til fakti sifatida tilshunoslikning ham obyekti sanaladi" [5].

Umumtilshunoslikda o'xshatish munosabati, asosan, sodda va qo'shma gap doirasida tadqiq etib kelinadi. Rus tilshunosi M.I.Cheremisina o'xshatish konstruksiyalarining tadqiqi borasida shunday fikr bildiradi: "Tan olish kerakki, o'xshatish – bu sintaktik kategoriyadir va uning tadqiqi sintaksis doirasida olib borilishi lozim. O'xshatish tilshunoslikning shu bo'limi metodlari va usullari vositasida o'rganilishi, sintaksisning maxsus tili, ya'ni uning terminlari va tushunchalari asosida tavsiflanishi kerak" [6]. O'xshatishning sintaktik qurilishi haqida gap ketganda, eng avvalo uning to'rt komponentli qurilma ekanligini unutmaslik kerak. M.Cheremisina tasnificha, ular quyidagilardan tashkil topadi: a) o'xshatish subyekti; b) o'xshatish etaloni; v) o'xshatish asosi; g) o'xshatish shakli.

M.Mukarramov «adabiy tilning tasviriy vositasi bo'lgan o'xshatishda leksik birliklar bilan ifodalangan ikki narsa, hodisa yoki tushuncha o'zining ma'lum bir belgi, xususiyati asosida bir-biriga obrazli chog'ishtirishdir. Zero, adabiyotshunoslikda tasviriy vositalarning badiiylik, obrazlilikda tutgan roli o'rganilsa, tilshunoslikda material sifatida qanday leksik va grammatik vositalar bilan ifodalanişi, ayniqsa muhimdir» deb ta'kidlaydi [7].

Tilda o'xshatish munosabatini ifodalovchi lisoniy vositalar doirasi bir muncha keng bo'lib, ular bir butun tizimni tashkil etadi:

1. Leksik vositalar.
2. Morfologik vositalar.
3. Sintaktik vositalar.

O'zbek tilshunosligida o'xshatish sodda gaplarni falsafiy va nazariy nuqtai nazardan tadqiq etib chiqqan olim Nizomiddin Mahmudov: «... o'xshatish sodda gaplarda hamisha murakkab semantik struktura, kamida ikkita semantik propozitsiya ifodalangan bo'ladi» [8], - deb qayd etadi. M.Cheremisina tasnifiga qo'shilgan holda, N.Mahmudov o'xshatishning to'rt komponentini quyidagi formula asosida $\{A[(B)\beta]C\}$ aks ettiradi [9]. Uning:

A- belgisi subyekt uchun,

B- belgisi etalon uchun,

S- belgisi o'xshatish asosi uchun keltirilgan.

β - belgisi o'xshatish shaklini ifoda etadi.

Bu modelga ko'ra, subyekt ega vazifasiga, etalon hol vazifasiga va o'xshatish asosi kesim vazifasiga xoslangan bo'ladi. O'xshatish shakli hamma vaqt o'xshatish etalonining morfologik shakli sifatida qayd etiladi. Masalan:

Kichigi ayiqchaday lapanglab, qiyqirib-qiyqirib qochadi. (A.Ko'chimov. Hovlidagi maydoncha).

Hikoyadagi parchani yuqorida keltirilgan formula orqali tahlil qiladigan bo'lsak, bunda kichigi (ya'ni kichik farzand) – subyekt; ayiqcha – o'xshatish etaloni; lapanglab – o'xshatish asosi; -day – o'xshatish shakli hisoblanadi. O'xshatishning to'rt komponentidan eng muhim qismi o'xshatish etaloni hisoblanadi. O'xshatish shakli esa o'xshatish etalonini izohlab kelib, uni turli vositalar yordamida namayon etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbek tilida o'xshatish munosabatini ifodalashda morfologik vositalar:

a) affikslar yordamida – -day, -dek, -simon, -ona, -larcha;

b) yordamchi so'zlar – kabi, singari, xuddi, bamisoli yordamchi so'zlar orqali ifoda etiladi.

Selday kelib, yelday olsin jonimni. (Toxir Malik "Hayot qayig'i")

Qoyil qolmoq kerak yurakka,

mushdekkina bo'lsa-da o'zi,

ko'taradi qoyadek dardni. (T. Malik)

Razil va xoin odamlarning do'stligi ilonni tarbiya qilishdek bir narsa. (T. Malik)

Boshimni qimirlatishim bilan, yeru osmon chirpirak bo'lib qo'shilib ketganday bo'laverdi. (T. Malik)

Yuqoridagi misollarda keltirilgan -day/-dek affikslari sermahsul sifat va ravish yasovchi affiks sifatida qayd etiladi. Affiksning ana shu xususiyatidan kelib chiqib aytish mumkinki, o'xshatish etalonini anglatgan so'z yoki birikma oxirida -day/-dek affiksi o'zakka qo'shilib, o'xshatish subyekti va o'xshatish etaloni o'rtasidagi umumiylikni qiyoslab, o'xshatish asosida tasvirlaydi [10].

Kabi, singari, ko'makchilari ham o'xshatish ma'nolarini ifodalashga xizmat qiladi:

Ajab dunyodir bu:

Zarlarga to'ymagan,

yoqutlarga to'ymagan xotin singari. (T. Malik)

Insonlarga yaxshilikni o'rgatib, o'zini unutgan kishi insonlarga yorug'lik taratib, o'zini eritgan mum kabidir. (T. Malik)

Uning nolasi sahro bag'riga tomgan tomchi kabi samarasiz bo'ldi. (T. Malik)

"Odamlar bir-birlarini bo'ri kabi g'ajiydilar", degan gapni eshitib turamiz va ajablanamizkim, bo'ri bir-birin g'ajimaydir... (T. Malik)

Bamisoli, xuddi yuklamalari ham o'zi bog'lanib kelgan so'zga o'xshatish ma'nosini yuklaydi:

Inson qalbi bamisoli dengiz – tagi-tugi yo'q bir narsa bo'lar ekan. (T. Malik)

Begunoh mahkumlarga yaqinlashib, xuddi mashq paytida yog'ochga qo'ndirilgan qovoqlarni chopganday, bir-bir ularning kallalarini uzib tashlabdi. (T. Malik)

Dadam bankani qo'liga olib, xuddi go'dak boshini silaganday silardilar-da, "keyin ochasan", dedilar. (T. Malik)

XULOSA

Yuqoridagi aytilgan fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, o'xshatishning shakliy ko'rsatkichlari o'xshatish qurilmasida yangi so'z hosil qilish, qo'shimcha ma'noni berish, gap bo'lagi vazifasini bajarish uchun xizmat qiladi. Bu jarayonda til va nutqning turli birlik va ifoda vositalari ishtirok etib fikrning obrazlilikini, ta'sirchanligini, fikrni tez va oson yetkazilishida muhim o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007 (Annotated dictionary of the Uzbek language. 5 vols. –T.: National Encyclopedia of Uzbekistan, 2007)
2. Shukhratova Yu.Sh. (2021). Linguistic morphological means of expressing an analytic attitude. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1865-1868.
3. M.Xayrullayev, M.Haqberdiyev. Logika. Predmeti va qisqa tarixi. – T.: «O'qituvchi», 1984. (M. Xayrullayev, M. Haqberdiyev. Logic. Subject and brief history. – T.: O'qituvchi, 1984. - page 247)
4. Философский словарь. – М.: Полиддат, 1991. – бет 92. (Philosophical dictionary. - M.: Polizdat, 1991.)
5. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. –T.: O'qituvchi, 1980. (Shomaksudov A., Rasulov I., Kungurov R., Rustamov H. Uzbek language stylistics. –T.: O'qituvchi, 1980.)
6. Махмудов Н, Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати – Т.: Маънавият, 2013. (Mahmudov N, Khudoyberganova D. Explanatory dictionary of Uzbek language analogies – T.: Manaviyat, 2013.)
7. Муқаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Т.: Фан, 1976. – бет 25-26. (Mukarramov M. Analogy in Uzbek. –T.: Fan, 1976.)
8. Mahmudov N. O'xshatish sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya // J. O'zbek tili va adabiyoti. –1986. № 6. (Mahmudov N. Semantic-syntactic asymmetry in analogous simple sentences // J. Uzbek language and literature. – 1986. № 6.)
9. Yuldasheva D. O'zbek bolalar folklori tilida zoonimlar. Diss. –T.: 2007 (Yuldasheva D. Zoonisms in the language of Uzbek children's folklore. Diss. –T.: 2007)
10. Shukhratova Yu.Sh. (2021). Similarity and comparison in compound sentences. *Экономика и социум*, (5-1)